

Students: Fayziyeva Sevinch

Akramova Fayoza

Assistent: Shakarov Allayor Baratovich

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada, bozor muvozanati tushunchasi, uning iqtisodiy jarayondagi o‘rni va ahamiyati keng yoritiladi. Bozor muvozanati, talab va taklifning muvofiqlashuvi natijasida shakllanuvchi muvozanat nuqtasi orqali iqtisodiyotdagi barqarorlik va samaradorlikni ta‘minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada bozor muvozanati asoslari, unga ta‘sir qiluvchi omillar va uning amaliyotda qo‘llanilishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Bozor muvozanati, talab, taklif, muvozanat nuqtasi, iqtisodiy samaradorlik, narx darajasi.*

KIRISH

Bozor muvozanati iqtisodiyotda talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat holatini ifodalaydi. Bozorda xaridorlar va sotuvchilar o‘zlarining talablari va takliflari orqali narx va mahsulot miqdorini aniqlaydi. Bozor muvozanati esa talab va taklif o‘zaro tenglashganda yuzaga keladi va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada bozor muvozanati tushunchasi, uning iqtisodiyotdagi ahamiyati va unga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli jihatlari o‘rtasida muayyan bir muvozanat mavjud bo‘lishi zarur. Iqtisodiy muvozanat esa iqtisodiy jarayonlar yoki hodisalarning ikki yoki undan ko‘p tomonlarining bir-biriga mos kelgan holatiga aytiladi. Shu sababli, umumiy iqtisodiy muvozanat haqida gap ketganda avvalo yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi tenglikni hisobga olish kerak. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatning shakllanish jarayoni va uni ta‘minlash ancha murakkab va qarama-qarshiliklarga boy. Bu jarayon o‘zida xususiy va umumiy ko‘rinishdagi turli muvozanatlar tizimini jamlaydi.

Xususiy muvozanat deganda o‘zaro bog‘langan ikki iqtisodiy ko‘rsatkich yoki iqtisodiyotning turli tomonlarining miqdoriy jihatdan tenglashuvi tushuniladi. Bunga ishlab chiqarish va iste‘mol, aholining sotib olish qobiliyati va tovar taklifi, budget daromadlari va xarajatlari, shuningdek, alohida tovarlarga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat misol bo‘la oladi. Umumiy muvozanat esa jamiyatning barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o‘zaro teng kelishini ifodalaydi. Umumiy iqtisodiy muvozanat bozor sharoitida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning tenglashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon nafaqat iste‘mol mahsulotlari, balki ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi va barcha iqtisodiy faoliyat natijalariga nisbatan talab va taklifning muvofiqlashgan holatidir. Umumiy iqtisodiy muvozanat qator shart-sharoitlarni talab qiladi:

1. Ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishi;
2. Iqtisodiy muvozanatning barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan xo‘jalik mexanizmini talab etishi;
3. Muvozanatli ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilmasi iste‘mol tuzilmasiga mos kelishi zarurligi;
4. Iqtisodiyotdagi umumiy muvozanatning asosi bo‘lib bozor muvozanati, ya'ni asosiy bozorlarda, jumladan, tovarlar, resurslar va ishchi kuchi bozorida talab va taklifning tenglashuvi hisoblanadi.

Mavjud iqtisodiy tizimni yangi tartib-qoidalar asosida to‘liq isloh qilish iqtisodiyotda turli nomutanosibliklar va qiyinchilik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida iqtisodiyotni faollashtirish, izchil rivojlantirish va barqarorlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Barqarorlashtirish jarayoni iqtisodiy rivojlanishda inqiroz xavfini oldini olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini va mahsulot tarkibini o‘zgartirishga qaratiladi. Respublika iqtisodiy islohotlarining dastlabki bosqichida barqarorlashtirish siyosatidan ko‘zlangan asosiy maqsad makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishining oldini olish va ommaviy ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslik edi.

Bozor muvozanati — bozorda talab va taklifning miqdoriy va tarkibiy jihatdan o‘zaro moslashgan holatidir. Bozor muvozanati o‘tkinchi (o‘zgarmas taklif sharoitida), qisqa muddatli (tashkilot yoki firmalarning soni o‘zgarmas, ammo ishlab chiqarish hajmi o‘zgaruvchi) va uzoq muddatli (iqtisodiy sharoitlar tashkilotlar, firmalar va mavjud talabning zamonaviy darajasiga moslashganda) bo‘lishi mumkin. Agar talab va taklif uzoq vaqt davomida bir-biridan uzoqlashsa, bozor muvozanati izdan chiqadi. Umumiy ma'noda bozor muvozanati barcha tovarlarga nisbatan uzoq muddat saqlanishi mumkin, biroq ayrim tovarlarga nisbatan muvozanat buzilishi tabiiydir, chunki ehtiyojning ortishi bilan yangi talab paydo bo‘ladi va bu talab darhol qondirilmaydi. Bozor muvozanatini ta'minlashning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: tovar ishlab chiqarishni talab darajasiga moslashtirib bozorni to‘ldirish, yetarli tovar zaxirasini yaratish, talab yuqori bo‘lgan tovarlarning narxini oshirish va sotilmayotgan tovarlarning narxini tushirish, eksport va importni oshirish yoki kamaytirish, aholi daromadlarini tovar va xizmatlar o‘lishiga mos ravishda oshirib borish, va mehnat unumdorligining ish haqiga nisbatan tezroq o‘lishini ta'minlash. Bozor muvozanati rivojlangan jamiyatda narxlar vositasida bozorni boshqarish orqali saqlanadi.

XULOSA

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, Mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, Bozor muvozanati iqtisodiyotning asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta rol o‘ynaydi. Bozor muvozanati o‘z navbatida iqtisodiyotni rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash va narxlarni barqarorlashtirishga yordam beradi. Bozor muvozanatini saqlash uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosat va islohotlar talab va taklif o‘rtasidagi tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Marshall, A. (1920). *Principles of Economics*. London: Macmillan.
2. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2009). *Economics*. McGraw-Hill Education.

3. McConnell, C. R., & Brue, S. L. (2014). *Microeconomics: Principles, Problems, and Policies*.